1873–1910-YILLARDA XIVA XONLIGIDA ZAMONAVIY TIBBIYOT XIZMATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Yusupov Izzat Sultonovich,
Urganch davlat tibbiyot instituti,
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha
birinchi prorektor, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
izzat.sultanovich@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19728843

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Xiva xonligining Chor Rossiyasi tarkibiga kirganidan keyingi davrda zamonaviy tibbiyot tizimining shakllanishi tahlil qilinadi. Xususan, hududda ilk tibbiyot punktlari tashkil etilgani va Rossiyadan malakali shifokorlar jalb qilingani yoritiladi. Biroq moliyaviy ta'minotning yetarli emasligi sababli shifokorlarning uzoq muddatli faoliyati ta'minlanmagani qayd etiladi. Shuningdek, tibbiy xizmatlar narxining yuqoriligi aholini qo'shni Amudaryo bo'limi markazidagi shifoxonalarga murojaat qilishga majbur etgani ta'kidlanadi. Maqolada, shu bilan birga, mazkur davrda ayrim yuqumli kasalliklarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar va ularning tarixiy ahamiyati tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar*: Gandimyon shartnomasi, Amudaryo bo'limi, shifokor, dorixona, ambulator davolash muassasasi, feldsher, feldsher-akusherlik punkti, telegramma.*

Аннотация. *В данной статье анализируется формирование системы современного здравоохранения в период после включения Хивинского ханства в состав Царской России. В частности, освещается создание первых медицинских пунктов на территории региона и привлечение квалифицированных врачей из России. Однако отмечается, что из-за недостаточного финансового обеспечения не удалось обеспечить длительную деятельность медицинских специалистов. Кроме того, высокая стоимость медицинских услуг вынуждала население обращаться в больницы, расположенные в центре Амударьинского отдела. Также в статье рассматриваются мероприятия по профилактике ряда инфекционных заболеваний, проводившиеся в данный период, и их историческое значение.*

Ключевые слова: *Гандимянский договор, Амударьинский отдел, врач, аптека, амбулаторное лечебное учреждение, фельдшер, фельдшерско-акушерский пункт, телеграмма.*

Abstract. *This article analyzes the formation of a modern healthcare system in the period following the incorporation of the Khiva Khanate into Tsarist Russia. In particular, it highlights the establishment of the first medical posts in the region and the recruitment of qualified physicians from Russia. However, it is noted that due to insufficient financial support, long-term operation of medical personnel could not be ensured. Furthermore, the high cost of medical services forced the population to seek treatment in hospitals located in the central Amu Darya Department. The article also examines measures taken for the prevention of certain infectious diseases during this period and their historical significance.*

Keywords: *Gandimyan Treaty, Amu Darya Department, physician, pharmacy, outpatient medical institution, feldsher, feldsher-midwife station, telegram.*

Kirish. Chor Rossiyasi tomonidan Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi bosib olinganidan keyin navbat Xiva xonligiga keladi. 1873-yil martida Toshkent, Orenburg, Qazali, Mang'ishloq va Krasnovodsk tomonidan Xivani bosib olish uchun

safarbar qilingan 13 ming kishidan iborat chor qo‘shinlari ixtiyorida 30 dan ortiq vrachlar ham bo‘lgan. 1873-yil 12-avgustda Xiva xonligi bilan Rossiya o‘rtasida sulh sharnomasi imzolandi. “Gandimyon shartnomasi” nomi bilan tarixda iz qoldirgan va 18 moddadan iborat mazkur hujjat Xiva xonligini yarim mustamlaka va qaram (vassal) davlatga aylantirdi. Shartnomaning 1-bandida xonlik mustaqil tashqi siyosat yuritish huquqidan mahrum etildi. Shartnomaga binoan Amudaryoning o‘ng sohillaridagi yerlar Rossiya tasarrufiga o‘tkazildi. Rus qo‘shinlarini joylashtirish maqsadida To‘rtko‘l qishlog‘i yaqinida Petro-Aleksandrovsk qal’asi bunyod etilib, u Sirdaryo viloyati tarkibida yangi tashkil etilgan Amudaryo bo‘limi markazi qilib belgilandi.

Shundan keyin xonlikka Rossiyalik shifokorlar tashrif buyurishni boshlaganlar. 1882-yilda shifokor Norvello, 1887-yilda Kreshkov, keyinchalik esa Korvello, Kolponov va Kolosovskiy kelgan. Ular asosan xonlikda yashagan rus fuqarolarini davolash uchun xizmat qilishgan. O‘lkada dorixonalar va boshqa tibbiy muassasalar yetishmasdi. Ayrim vakillar Turkiston general-gubernatori nomiga qishloq dorixonalarini ochish huquqi uchun ruxsat berishni so‘rab arizalar yozganlar.

Jumladan, A. S. Vishnevskiy Xiva shahrida dorixona ochishga ruxsat berishni va o‘zini shu dorixonaning boshqaruvchisi etib tayinlashni so‘ragan. Unga rad javobi berilgan, chunki Xiva shahrida Rossiyalik shifokorlar bo‘lmagan va shu sababli Rossiya qonunlariga ko‘ra u yerda dorixona ochish mumkin bo‘lmagan. Petro-Aleksandrovsk shahridagi qishloq dorixonasi egasi M. K. Bersuskiy esa Yangi Urganchda qishloq dorixonasini ochish uchun ruxsat so‘ragan bo‘lib, uni uzoq davom etgan sarson-sargardonliklardan so‘ng ruxsat olgan.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarda Xiva xonligining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixi keng yoritilgan bo‘lsa-da, zamonaviy tibbiyot tizimining shakllanish jarayoni alohida kompleks tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Xususan, Muhammad Yusuf Bayoniy, M. Maxmudov hamda A.S. Sadykov asarlarida tarixiy voqealar umumiy kontekstda bayon etilib, tibbiyot tizimiga doir ma’lumotlar epizodik tarzda uchraydi. G‘oyipov, Jumaniyazov va Abdurahmonovlarning tadqiqotlarida esa Xiva tibbiyoti tarixi muayyan darajada yoritilib, tibbiy muassasalar faoliyati haqida muhim faktlar keltirilgan. Shu bilan birga, mazkur masalaning ijtimoiy va institutsional jihatlari chuqur tahlilni talab etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil hamda manbashunoslik usullaridan foydalanildi. Arxiv hujjatlari, tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida Xiva xonligida tibbiyot tizimining shakllanish bosqichlari

kompleks ravishda o‘rganildi. Shuningdek, voqealar rivoji sabab-oqibat bog‘liqligida tahlil qilinib, ularning tarixiy ahamiyati ilmiy asosda yoritildi.

Tahlillar va natijalar. 1887-yilda Xivada ambulator davolash muassasasi ochilgan. Ushbu davolash muassasasida 1891-yilda vrach I.I.Avdakushin va feldsher doya Novostruyevskaya faoliyat olib borgan. Ushbu punktning ishlarini va aholi sog‘ligini tekshirishi uchun 1897-yilda vrachlar Popov va Kosenko, feldsher N.Kosyanenko va I.Y.Kumberglar kelishgan. Ular podsho hukumatini Xivada shifoxona, ambulatoriya va apteka tashkil qilish kerakligiga ishontirishga harakat qilganlar. Lekin ularning harakatlari podsho amaldorlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydi. Chor hukumati ham, xonlik hukumati ham Xivadagi feldsherlik ambulatoriya punkti xizmatchi, xodimlariga ish haqi to‘lash uchun mablag‘ ajratmagan. Natijada feldsher N.Kosyanenko ketib qolgan.

Keyinchalik Feldsherlik-ambulatoriya punktining xarajatlarini ko‘tarishni xonlik zimmasiga yuklangan. Xon barcha sarf-xarajatlarni, vrachlarning yashashi, oylik maoshlarini to‘lashni ham bo‘yniga oladi. Xon punktni ochishning o‘ziga 1696 so‘m sarflagan, yana har yili 1740 so‘mcha mablag‘ g‘aznadan ajratish belgilab qo‘yilgan. Punktda to‘rtta o‘rin bo‘lib, bu yerda keyinchalik vrach Kreshkov, Popov va Kosyanenkolar ishlashgan. Punkt xonlik poytaxti va uning atrofidagi qishloq aholisiga va uzoq hududlardan kelish imkoni bo‘lgan boy-badavlat kishilarga tibbiy xizmat ko‘rsatgan.

Bu muassasa birinchi shifoxona ish boshlaguncha, ya’ni yigirma yilcha faoliyat ko‘rsatdi. Xonlikka tegishli bo‘lgan qishloqlarda yuqumli kasalliklar ko‘p tarqalgani boisdan To‘rtko‘ldagi Amudaryo bo‘limi boshlig‘i xonga murojaat qilib, chechakka qarshi emlovchi mutaxassis yuborishin, unga har oyda 15 so‘m miqdorida maosh tayinlashni taklif qiladi. Rejaga ko‘ra, bu shifokor shahar va qishloqlar bo‘ylab yurib, aholini chechakka qarshi emlashi lozim edi. Afsuski, bu reja amalga oshmaydi. Keyinchalik ham Xivada o‘n o‘rinlik shifoxona, yirik shaharlaridan 15 tasiga doimiy ishlaydigan feldsher-akusherlik punkti ochish taklifi o‘rtaga tashlanadi. Bu kasalxona va punktlarni saqlash uchun xon g‘aznasidan yiliga 15 ming so‘m mablag‘ sarflash kerak bo‘lgan. Turli sabablar, asosan, mablag‘ masalasida qiyinchiliklar tufayli bo‘lsa kerak, Feruz bu takliflarni rad etgan.

1901-yilda Xivaga kelgan rus vrachi V.P.Shumeyko xonlik aholisining bir qismini tibbiyot ko‘rigidan o‘tkazib, aholi o‘rtasida terlama, ichburug‘, isitma, qo‘tir kabi xastaliklar nisbatan ko‘p tarqalganini aniqlaydi. U xonning o‘zini ham bir muddat davolagan. Ayrim xastaliklarni tezda aniqlab, ularga davo bo‘luvchi, tez ta’sir qiluvchi dori-darmonlar ishlatgani uchun ham vrachning obro‘si aholi o‘rtasida oshib ketadi. Biroq ko‘p o‘tmasdan Shumeyko Xivadan ketib qolgan. Shumeykoning

xalq orasidagi obro‘si, odamlarda ishonch uyg‘otganini xonning ukasi Otajon to‘ra tomonidan rus vrachiga 1902-yil 9-may kuni yozilgan maktubi ham tasdiqlaydi.

Xonlikda tibbiyot muassasalarining yetishmasligi sababli Xiva xalqi ba’zan davolanish uchun ancha pul to‘lab, Amudaryo bo‘limi kasalxonalarida davolangan. Chunonchi, Yangi Urganchda yashovchi Malla Berdiyev Shabboz kasalxonasida 7 kun davolangani uchun 6 so‘m 88 tiyin to‘lagan. Lekin hamma ham davolanish uchun pul to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmagan. Masalan, 1890-yilda ambulatoriyada davolangan Mirzo Boboyev uzoq vaqtgacha 2 so‘m 15 tiyinni to‘lay olmagan. Amudaryo bo‘limi boshlig‘i ko‘p hollarda kasalxona va ambulatoriyalarda davolanish pulini ishlay olmagan qarzdorlar ro‘yxatini Xivaga yuborib turgan. Jumladan, 1902-yil 9-noyabrda u Petro-Aleksandrovsk kasalxonasida davolangan xivaliklarning ro‘yxatini yuborib, ulardan davolanganliklari uchun pul undirib olishni so‘ragan. Ro‘yxatda 6 kishi bo‘lgan:

1. Adamboyev Arazembet – 26 kun – 11 so‘m 18 t.
2. Adamboyev Urazembet – 24 kun – 10 so‘m 30 t.
3. Bobojonov Atamurat – 34 kun – 14 so‘m 62 t.
4. Ibodullinov Rajab – 6 kun – 2 so‘m 58 t.
5. Qutlimuratov Ismoil – 19 kun – 8 so‘m 17 t.
6. Xo‘jamberganov Eshon – 9 kun – 3 so‘m 87 t.

Jami: 118 kun – 50 so‘m 72 t.

1909-yilda Yangi Urganchda xon mablag‘iga feldsherlik punkti ochildi. Endilikda xonlikga keladigan vrachlar bemorlarni shu yerda qabul qiladigan bo‘ldilar. 1908-yilda Muhammad Rahimxon II payg‘ambar yoshiga to‘lgani sababli o‘g‘li Asfandiyorxon va vaziri Islomxo‘jani bosh qilib, elga katta to‘y berdi. 1910-yilning avgustida Feruzni kasali og‘irlashganidan keyin Islomxo‘ja rus imperatoriga telegramma jo‘natib, voqeani bayon etadi. Nikolay II javob telegrammasi berib, Amudaryo bo‘limi boshlig‘iga Xiva xonini o‘z nomidan borib ko‘rishni buyurgandi. 1910-yil 16-avgustda xon 66 yoshida vafot etdi va jasadi Said Muhammad Mohiro‘yijahon maqbarasiga dafn qilindi. Taxtda 47 yil 15 kun o‘tirgan Muhammad Rahimxon, shubhasiz, Xiva xonligi tarixida o‘chmas iz qoldirgan davlat arboblaridan biri edi. Muhammad Rahimxon II o‘zining uzoq yillar davomidagi xonlik davrida juda ko‘p voqealarning guvohi bo‘ldi. “Ma’lum bo‘lsinkim, xon hazratlari bag‘oyat mushfiq fuqaro va bag‘oyat xayrdo‘st kishi erdilar”,— deb yozgandi Bayoniy.

XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo hududlarini chor Rossiyasi istilosi bilan zamonaviy tibbiyoti ham kirib keldi. Bu xol umuman ijobiy rol o‘ynasa ham biroq o‘z navbatida, xalq tabobati an’analarining asta-sekin amalyotdan chiqa borishiga sabab bo‘lgan. Xiva xonligi kelgan dastlabki rus shifokorlari asosan

xonlikda istiqomat qilayotgan rus fuqarolarini hamda saroy ayonnlarini hamda boy-badavlat kishilarni davolash uchun xizmat qilishgan. Uzoq qishloqlardagi aholi bo‘lsa, zamonaviy tibbiyot xizmatidan bebahra qolaverishganini ta’kidlash joiz.

1891-yilda Xivada ambulator davolash muassasasi ochilgan. Lekin u yerda faoliyat olib borgan xodimlariga ish haqi to‘lash uchun mablag‘ ajratmagan. Xarajatlarini ko‘tarishni xonlik zimmasiga yuklangan. Tibbiyot muassasini kichik bo‘lganligi sababli xonlik aholisini zamonaviy tibbiyot hizmatidan foydalanish imkoniyatlarini cheklanishiga sabab bo‘lgan.

Xulosa. Xiva xonligida tibbiyot muassasalarining yetishmasligi sababli Xiva xalqi ba’zan davolanish uchun Amudaryo bo‘limi kasalxonalariga murojat qilishgan lekin davolanish haqi yuqori bo‘lganligi sababli hamma ham davolanish uchun pul to‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi xorazmshohiy. // “Meros” to‘plamida. – Toshkent: Kamalak, 1992. – B. 207.
2. Maxmudov M. Xiva xonligi tarixi. – Urganch, 2006. – B. 92.
3. Садыков А.С. Россия и Хива в конце XIX начале XX века. – Тошкент: Фан, 1972. – С. 86.
4. G‘oyipov M., Jumaniyazov Sh., Abdurahmonov U. Xiva tibbiyoti (Xiva shifoxonasiga 100 yil). Toshkent: Istiqlol nuri, 2013. – B. 78.
5. G‘oyipov M., Jumaniyazov Sh., Abdurahmonov U. Xiva tibbiyoti (Xiva shifoxonasiga 100 yil). Toshkent: Istiqlol nuri, 2013. – B. 78. Xiva tibbiyot muzeyi fondida 4005 raqami ostida saqlanmoqda.
6. Rahimov D., Matrasulov Sh. Feruz. – Toshkent: “Extremum press”, 2011. – B. 133.